

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Boshqaruvining
2023-yil 08 09 dagi
220 – sonli qaroriga
1-ILOVA

“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATB
MASTERCARDdan “Otashin sovg‘alar”
AKSIYASI QOIDALARI

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu qoidalar “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan chiqarilgan MASTERCARD bank kartalari egalari o‘rtasida aksiyani o‘tkazish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya tashabbuskori: MASTERCARD EUROPE SA.
- 1.3. Tashkilotchi: “O‘zsanoatqurilishbank” ATB.
- 1.4. Aksiya o‘tkaziladigan hudud – O‘zbekiston Respublikasi.
- 1.5. Aksiya o‘tkazish muddati: 2023-yil 15-sentabrdan 15-dekabrgacha.

2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keying o‘rinlarda – Bank) tomonidan chiqarilgan har qanday turdagi amaldagi MASTERCARD kartalarining egalari bo‘lgan, ushbu Qoidalarning talablariga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi (yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan) chet el fuqarolari aksiya ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin. Bankda mehnat va fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida ishlovchi shaxslar aksiya ishtirokchilari bo‘la olmaydi.
- 2.2. Aksiyada ishtirok etish aksiya ishtirokchilarining ushbu qoidalarga to‘liq roziligini anglatadi.
- 2.3. Agar aksiya ishtirokchisi ushbu qoidalarga rioya qilmasa, ishtirokchi aksiyada ishtirok etish va sovrinni olish huquqini yo‘qotadi. Sovrin olish uchun aksiya ishtirokchisi ushbu qoidalarda talab qilinadigan barcha harakatlarni aksiya muddati davomida, shu jumladan sovrin olinganligini tasdiqlovchi dalolatnoma imzolangunga qadar bajarishi shart.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun jismoniy shaxs aksiya boshlanishidan oldin yoki aksiya o‘tkazilayotganda Bank tomonidan chiqarilgan har qanday turdagi MASTERCARD bank kartasi egasi bo‘lish zarur. MASTERCARD kartasi egasi mazkur Qoidalarning 5.3-bandida ko‘rsatilgan muddatlar davomida savdo terminallari va internet orqali (POS yoki EPOS) jami 10 AQSh dollari miqdorida (yoki so‘m ekvivalentida) kamida 3 ta tranzaksiya amalga oshirishi kerak va mijoz avtomatik ravishda aksiya ishtirokchisiga aylanadi.
- 3.2. G‘olibni aniqlashda aksiya muddatida, ya’ni 2023-yil 15-sentabrdan 15-dekabrgacha bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida savdo terminallari va internet orqali (POS yoki EPOS) amalga oshirilgan va aks ettirilgan tranzaksiyalar hisobga olinadi.

- 3.3. Bitta karta egasi o'z nomiga ochilgan barcha MASTERCARD kartalari bilan ishtirok etishi mumkin.
- 3.4. Aksiya talablari (savdo terminallari va internet orqali (POS yoki EPOS) jami 10 AQSh dollari miqdorida (yoki so'm ekvivalentida) kamida 3 ta tranzaksiya) bajarilgandan so'ng aksiya muddatida amalga oshirilgan har bir tranzaksiya g'olibni aniqlashda yana bitta imkoniyat deb qaraladi.
- 3.5. Aksiyada Bank tomonidan chiqarilgan har qanday turdagi MASTERCARD kartalari ishtirok etadi.
- 3.6. Aksiyada g'olib bo'lgan ishtirokchilar ushbu aksiyaning keyingi bosqichlarida ishtirok etolmaydi.

4. Sovrin jamg'armasi:

- 4.1. 15 dona Apple iPhone 14 Pro Max 128 GB smartfonlari; 15 dona 10 million so'mlik zargarlik buyumlari uchun sertifikatlar; 15 dona Sony PlayStation PS5 DIGITAL EDITION 825gb/Go o'yin pristavkalari.
- 4.2. Mazkur aksiya bo'yicha sovrin olish munosabati bilan vujudga kelgan barcha tegishli soliqlar va davlat budjetiga majburiy to'lovlarni to'lash aksiya g'olibi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
- 4.3. G'oliblar Bankdan biron bir tovarni sovrin summasiga sotib olish orqali sovrinni almashtirishni talab qilishga yoki sovrinning pul ekvivalentini talab qilishga, sovrinni boshqa yuqori yoki past qiymatga almashtirishga, qo'shimcha to'lov yoki qiymat farqini qaytarish sharti bilan almashtirishga haqli emas.
- 4.4. Aksiyaning qo'shimcha mukofoti sifatida aksiya muddatida har qanday turdagi MASTERCARD kartasini ochgan Bankning mijozlariga charm to'plamlari va Yandex stansiyalari sovg'a qilinishi mumkin.


5. Promo-aksiyani o'tkazish tartibi va sovrinlarni o'tkazish tartibi

- 5.1. Sovrindorlarni aniqlash "O'zsanoatqurilishbank" ATB mas'ul xodimlari ishtirokida o'tkaziladi.
- 5.2. Aksiya 3 bosqichda o'tkaziladi. Ushbu Aksiya qoidalari 3.2-band shartlariga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirgan karta egalari aksiya ishtirokchisiga aylanadi. Aksiya g'oliblarining umumiy soni 45 kishi.
- 5.3. Aksiya bosqichlari:
1-bosqich: 2023-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha;
 Sovrindorlarni aniqlash sanasi: 2023-yil 24-oktabr;
 G'oliblarga sovrinlarni topshirish sanasi: 2023-yil 1-noyabr
2-bosqich: 2023-yil 16-oktabrdan 15-noyabrgacha;
 Sovrindorlarni aniqlash sanasi: 2023-yil 23-noyabr;
 G'oliblarga sovrinlarni topshirish sanasi: 2023-yil 30-noyabr;
3-bosqich: 2023-yil 16-noyabrdan 15-dekabrgacha;
 Sovrindorlarni aniqlash sanasi: 2023-yil 22-dekabr;
 G'oliblarga sovrinlarni topshirish sanasi: 2023-yil 28-dekabr;
- 5.4. Aksiya g'oliblari Random.org tasodifiy sonlar generatori orqali @sqbuz Instagram rasmiy sahifasida jonli efirda aniqlanadi.
- 5.5. Tashkilotchi aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi, aksiya o'tkazishda bahsli vaziyatlar yuzaga kelgan hollar bundan mustasno.

- 5.6. Aksiya davomida ishtirokchilarning roziliklari asosida ularning ismlari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa materiallar tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida ularga hech qanday haq to'lamasdan foydalanilishi mumkin.
- 5.7. Tashkilotchi ushbu qoidalarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ushbu o'zgarishlar kuchga kirishidan 3 ish kuni oldin www.sqb.uz saytiga o'zgartirishlar to'g'risida e'lon joylashtiradi. Tashkilotchi sovrinlar ro'yxati va hajmini o'zgartirish yoki kengaytirish huquqiga ega.
- 5.8. Tashkilotchi ishtirokchining aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, to'lovlar va boshqa xarajatlarni qoplamaydi yoki to'lab bermaydi.
- 5.9. Tashkilotchi mukofot egasining sog'lig'iga (hayotiga), mol-mulkiga, shuningdek, uchinchi shaxslarning sog'lig'iga yoki hayotiga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.
- 5.10. Ushbu aksiyani o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar tashkilotchi va ishtirokchi o'rtasida xolislik va o'zaro tushunish asosida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.
- 5.11. G'olib sovrinni olishdan bosh tortishga haqlidir va bu to'g'risida tashkilotchiga yozma ravishda joriy yilning 20-dekabridan kechiktirmay ma'lum qilishi lozim. G'olib sovrinni rad etgan taqdirda, tashkilotchi ushbu Qoidalarining 5.4-bandida belgilangan tartibda va 2023-yil 22-dekabrdan kechiktirmay sovrinlarni navbatdagi sovrinlar o'ynalganda mazkur sovrin bo'yicha g'olibni aniqlaydi.
- 5.12. Agar aksiyaning e'lon qilingan g'olibi bilan 3 ish kuni ichida shaxsan bog'lanishning iloji bo'lmasa yoki g'olib aloqaga chiqmasa, yutib olingan sovrin ushbu Qoidalarining 5.4-bandida belgilangan tartibda va 2023-yil 22-dekabrdan kechiktirmay keyingi sovrinlar o'ynalganda keyingi bosqich g'olibiga topshiriladi.
- 5.13. G'oliblarning ismlari SQB rasmiy ijtimoiy media kanallarida e'lon qilinadi.
- 5.14. Tashkilotchi aksiya g'olibi bilan MASTERCARD bank kartasini ro'yxatdan o'tkazishda ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan telefon raqami orqali bog'lanadi.
- 5.15. Agar aksiya g'olibligi to'g'risida xabardor qilingan ishtirokchi bir oy ichida, aksiyaning oxirgi bosqichi tugagandan so'ng, sovrin uchun tashkilotchiga murojaat qilmasa, talab qilinmagan sovrin tashkilotchi tasarrufida qoladi va g'olibga berilmaydi.

6. Yakuniy qoidalar

- 6.1. Bank mijozlarining sovrinlarni o'tkazish tartibida ishtirok etishi ularning barcha ishtirokchilari uni o'tkazishning ushbu shartlariga rozi bo'lishini anglatadi. Ushbu aksiya qoidalari barcha ishtirokchilar uchun yakuniy va qat'iydir.
- 6.2. Aksiyaning potensial ishtirokchilarini uni o'tkazish muddatlari va shartlari to'g'risida xabardor qilish reklama materiallarini Telegram yangiliklar kanallarida, SQB tashqi reklama maydonchalarida va korporativ sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va www.sqb.uz rasmiy veb-saytda joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
- 6.3. Aksiya muddatidan oldin tugatilishi mumkin bo'lgan taqdirda bu haqda ma'lumot rasmiy veb-saytda joylashtiriladi www.sqb.uz.



ПРАВИЛА АКЦИИ
АКБ «УЗПРОМСТРОЙБАНК»
«Фейерверк подарков» от MASTERCARD

1. Общие положения

- 1.1. Настоящие правила определяют порядок проведения Акции «Фейерверк подарков» среди держателей банковских карт MASTERCARD, эмитированных АКБ «Узпромстройбанк».
- 1.2. Инициатор акции: MASTERCARD EUROPE SA.
- 1.3. Организаторы: АКБ «Узпромстройбанк».
- 1.4. Территория проведения акции - Республика Узбекистан.
- 1.5. Сроки проведения акции: с 15 сентября по 15 декабря 2023 года включительно.

2. Участники акции

- 2.1. Участниками Акции могут стать граждане Республики Узбекистан, иностранные граждане постоянно проживающие на территории Республики Узбекистан (имеющие Вид на жительство РУз), являющиеся держателями действующих карт MASTERCARD, любого типа, выпущенных АКБ «Узпромстройбанк» (в дальнейшем - Банк), выполнившие требования настоящих Правил. Участниками Акции не могут быть лица, состоящие в трудовом и гражданско-правовом договоре с АКБ «Узпромстройбанк».
- 2.2. Участие в Акции подразумевает полное согласие участников акции с настоящими Правилами.
- 2.3. При несоблюдении участником Акции настоящих Правил, участник утрачивает право дальнейшего участия в Акции и получения приза. Для получения приза участник Акции обязан выполнить все требуемые настоящими Правилами действия в течение срока проведения Акции, вплоть до момента подписания Акта, подтверждающего получение приза.

3. Условия участия в акции

- 3.1. Для участия в Акции необходимо являться держателем карты MASTERCARD любого типа, эмитированной в Банк до начала акции, либо во время проведения Акции. Держателю карты MASTERCARD необходимо произвести не менее 3 транзакций с одной карты на общую сумму от 10 долларов США (или в сумовом эквиваленте) через торговые терминалы или в электронной коммерции (POS или EPOS) в сроках установленном в п.5.4 настоящих Правил, и он автоматически становится её участником.
- 3.2. К учету принимаются транзакции, совершенные через торговые терминалы или в электронной коммерции (POS или EPOS) и отраженные в банковских программных обеспечениях с 15 сентября по 15 декабря 2023 года включительно, как на территории Республики Узбекистан, так и за ее пределами.

- 3.3. Один обладатель карты может участвовать со всеми картами MASTERCARD, выпущенными на его имя.
- 3.4. Каждая транзакция, совершенная в период акции после выполнения условий акции, будет засчитана как ещё один голос при выборе победителя в розыгрыше.
- 3.5. В Акции участвуют карты MASTERCARD любого типа, эмитированные Банком.
- 3.6. Участник, ставший победителем в розыгрыше одного из этапов не будет участвовать в следующих этапах данной акции.

4. Призовой фонд:

- 4.1. Смартфоны Apple iPhone 14 Pro Max 128 GB, в количестве 15 шт.; сертификаты на ювелирные украшения на сумму 10 млн сум, в количестве 15 шт.; игровые приставки Sony PlayStation PS5 DIGITAL EDITION 825Gb/Go, в количестве 15 шт.
- 4.2. Уплата всех соответствующих налогов и обязательных платежей в государственный бюджет, возникших в связи с получением приза (призов) по настоящей Акции, производится Победителем акции самостоятельно в порядке, установленном Налоговым кодексом и законодательством Республики Узбекистан.
- 4.3. Победители не вправе требовать замены приза путем приобретения какого-либо товара на призовую сумму, либо требовать денежный эквивалент приза, заменить приз на другой более высокой или низкой стоимости с условием доплаты или возврата разницы в стоимости.
- 4.4. Дополнительным призом Акции являются Yandex станции и кожаные наборы для вручения клиенту АКБ «Узпромстройбанк», открывшему карту MASTERCARD любого типа в период с 15 сентября по 15 декабря 2023 года включительно.

5. Порядок проведения промо-акции и процедура розыгрыша призов

- 5.1. Розыгрыш призов производится в присутствии ответственных работников АКБ «Узпромстройбанк».
- 5.2. Акция проводится в 3 этапа. Участниками розыгрыша становятся держатели карт, совершившие транзакции, соответствующие условиям п.3.2. настоящих Правил Акции. Общее количество победителей Акции - 45 человек.
- 5.3. Этапы проведения Акции:
1-этап: с 15 сентября по 15 октября 2023 г.;
Дата проведения розыгрыша: 24 октября 2023 г.;
Дата вручения призов: 1 ноября 2023 г.
2-этап: с 16 октября по 15 ноября 2023 г.;
Дата проведения розыгрыша: 23 ноября 2023 г.;
Дата вручения призов победителям: 30 ноября 2023 г.;
3-этап: с 16 ноября по 15 декабря 2023 г.;
Дата проведения розыгрыша: 22 декабря 2023 г.;
Дата вручения призов победителям: 28 декабря 2023 г.;
- 5.4. Победители розыгрыша определяются посредством генератора случайных чисел Random.org в прямом эфире на официальной страничке @sqbuz в Instagram.

- 5.5. Организатор оставляет за собой право не вступать в письменные переговоры, либо иные контакты с участниками Акции, за исключением случаев возникновения спорных ситуаций в проведении Акции.
- 5.6. В ходе акции с согласия участников их имена, фамилии, фотографии и иные материалы о них могут быть использованы организатором в рекламных целях без уплаты им какого-либо вознаграждения.
- 5.7. Организатор оставляет за собой право на свое усмотрение вносить любые изменения и дополнения в настоящие Правила, разместив объявление об изменениях на сайте www.sqb.uz за 3 рабочих дня до вступления этих изменений в силу. Организатор имеет право изменить или расширить перечень и размер призов.
- 5.8. Организатор не возмещает и не компенсирует убытки, издержки и любые иные расходы, которые могут возникнуть у участника в связи с его участием в Акции.
- 5.9. Организатор не несет ответственности за любой ущерб, нанесенный как здоровью (жизни) обладателю приза, так и имуществу, здоровью или жизни третьих лиц в течение всего срока эксплуатации приза.
- 5.10. Все споры и разногласия, которые могут возникнуть при проведении настоящей Акции, будут решаться путем переговоров между Организатором и участником Акции на основе доброй воли и взаимопонимания. При отсутствии согласия, спор подлежит рассмотрению, согласно действующему законодательству Республики Узбекистан;
- 5.11. Победитель вправе заявить о своем отказе в получении приза, который направляется в адрес Организатора в письменной форме не позднее 20 декабря т.г. В случае отказа победителя от приза, Организатор определяет очередного победителя при последующем розыгрыше призов в порядке, установленном в п.5.4 настоящих Правил, и не позднее 22 декабря 2023 г..
- 5.12. В случае если объявленный победитель Акции не выходит на связь с Организатором в течение 3 дней или с ним невозможно связаться лично, выигрыш участника разыгрывается повторно, при последующем розыгрыше призов в порядке, установленном в п.5.4 настоящих Правил, и не позднее 22 декабря 2023 г..
- 5.13. Имена победителей объявляются на официальных каналах SQB в социальных сетях.
- 5.14. Организатор связывается с победителем Акции по номеру телефона, указанному участником при оформлении карты MASTERCARD.
- 5.15. В случае если победитель Акции в течение одного месяца, после завершения последнего этапа Акции не обратится к Организатору за призом, невостребованный приз используется Организатором по своему усмотрению.

6. Заключительные положения

- 6.1. Факт участия клиентов АКБ «Узпромстройбанк» в процедуре розыгрыша Призов означает, что все его участники соглашаются с настоящими условиями его проведения. Настоящие Правила проведения Акции являются окончательными и обязательными для всех участников.
- 6.2. Информирование потенциальных участников Акции о сроках и условиях её проведения производится путём размещения рекламных материалов в новостных Telegram-каналах, на наружных рекламных площадках и корпоративных страничках SQB в социальных сетях и на официальном сайте www.sqb.uz.
- 6.3. В случае возможного досрочного прекращения проведения Акции информация об этом размещается на официальном сайте www.sqb.uz.

